

Boshqaruvda axborot texnologiyalari

**Safarali HAMROEV,
Sergeli tuman xalq
ta'lim bo'limi mudiri,
Xalq ta'limi a'lochisi**

Ma'lumki, har qanday davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rni va ahamiyati ko'p jihatdan uning texnologik rivojlanish darajasi, dunyo ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti sur'atlariga nechog'lik muvofiqligi, o'zining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ishonchli ilmiy asos yaratilganligi bilan belgilanadi.¹ Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida ilg'or texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. To'plangan tajribalarning ko'rsatishicha, maktab boshqaruvining axborot tizimi mazkur masalani muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlaydi. Aynan maktab boshqaruvining axborot tizimi to'plangan dastlabki ma'lumotlarni sifatli axborotlarga aylantirishga yordam beradi, ta'lim jarayoni va uni boshqarish tizimi ishtirokchilari o'rtasida axborotlar almashinuvi jarayonini ta'minlab beradi.² Shu ma'noda bugungi kunda barcha ta'lim muassasalari, shuningdek, xalq ta'limining boshqaruv organlarida ilm-fan yutuqlari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

O'quv jarayoniga keng formatli kommunikatsiya tarmoqlari va internet texnologiyalarini joriy qilish maqsadida O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligiga Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda "Elektron ta'lim" milliy tarmog'ini barpo etishni nihoyasiga yetkazish hamda 2011 yilda mamlakatimizning barcha oliy o'quv yurtlarini, keyinchalik esa akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini yagona kompyuter tarmoqiga ulashni ta'minlash vazifasi yuklatiladi.

Ana shu masala bo'yicha Sergeli tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan qator yangiliklar dunyo yuzini ko'rdi. Hozirgi kunda tuman xalq ta'limi bo'limi va ta'lim muassasalari o'rtasida elektron aloqa to'liq yo'lga qo'yildi. Ya'ni, mavjud 67ta ta'lim muassasasining barchasi o'z elektron manziliga ega bo'lib, ular orqali yuqori tashkilotlardan kelgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar o'z vaqtida qabul qilinmoqda. Mazkur

¹ Murod Sharifxraev. O'zbekiston: yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. –T.: «Sharq», 2002.

² Rustam Ahliddinov. Maktabni boshqarish san'ati. – T.: «Fan», 2006.

hujjatlar ijrosi haqidagi ma'lumotlar ham elektron shaklda yuqori tashkilotlarga yuborilmoqda.

Shuningdek, tuman xalq ta'limi bo'limi (TXTB)ning stxtb.zn.uz veb sayti ochilganini ham alohida e'tirof etish joiz. Mazkur saytda tuman xalq ta'limi bo'limi, umumta'lim maktablari, maktabdan tashqari ta'lim maskanlari hamda TXTB tarkibidagi boshqa muassasalar faoliyatiga tegishli bo'lgan bir qancha ruknlar mavjud. Jumladan, tumanda xalq ta'limining rivojlanish tarixi, huquqiy-me'yoriy hujjatlar bazasi, rahbarning elektron qabulxonasi, yangiliklar, metodika kabineti, tumandagi barcha ta'lim muassasalari haqidagi ma'lumotlar ana shu saytdan o'rin olgan. Ushbu ma'lumotlardan umumta'lim maktablari o'qituvchi-murabbiylari, metodistlar hamda o'quvchi-yoshlar o'z ehtiyoji, qiziqishlariga ko'ra samarali foydalanmoqdalar. Ayniqsa, huquqiy-me'yoriy hujjatlar bazasi, tuman xalq ta'limi bo'limi mudirining elektron qabulxonasi hamda virtual metodika kabineti ta'lim muassasalari pedagoglari va o'quvchi-yoshlarning e'tiborini o'ziga tortib, qiziqishlariga sabab bo'layapti. Jumladan, rahbarning elektron qabulxonasi rukniga shu kunga qadar ko'plab savol va murojaatlar kelib tushdi. Fuqarolar ushbu rukn orqali xalq ta'limi bo'limi mudiri bilan bevosita muloqot olib borishlari, o'zlarini qiynayotgan masalalar yuzasidan murojaat qilishlari mumkin. Shu bois rukn mavjud muammolarni o'rganish va ularni o'z vaqtida bartaraf etish, shuningdek, pedagoglar, o'quvchilar hamda ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'lib turish, taklif-mulohazalarga munosib javob berishda qulay va ishonchli manba sifatida asqotmoqda.

Umumta'lim maktablarining "ZiyoNET" axborot-portaliga ulanganini muhim voqeya deb hisoblash mumkin. Boisi ushbu axborot-ta'lim portali o'zida milliy manfaatlarimizni mujassam etgan bo'lib, ko'p sonli pedagoglar, o'quvchilar va keng jamoatchilikning ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, ilm-fan yangiliklari, qiziqarli ma'lumotlarga bo'lgan talablarini qondirmoqda. Shuningdek, axborot-ta'lim portali tarkibida sayt-satellit sifatida ish boshlagan umumta'lim maktablarining veb manzillari ham e'tiborga loyiq. Hozirgi kunga kelib tumandagi 20ta ta'lim muassasasining "ZiyoNET" axborot-portalida o'z veb sahifasi mavjud. Mazkur veb sahifalarda maktab hayoti, yangiliklar va boshqa ma'lumotlarga ega bo'lish istagidagi har bir ota-ona uchun axborotlar elektron ko'rinishda

taqdim etilmoqda. Bundan tashqari, 40 nafar o'qituvchimiz ham o'z veb sahifasini yaratib, o'z tajribalarini keng targ'ib etmoqda. Ushbu sayt-satellitlar yordamida respublikamizning turli hududlarida faoliyat olib borayotgan pedagoglar o'zaro tajriba almashishlari, mavjud imkoniyatlar va yangiliklar haqida bir-birlarini xabardor qilib borishlari mumkin. QQolaversa, shu kabi saytlar vositasida bugungi kunda keng miqyosda olib borilayotgan "Ustoz-shogird maktabi" tizimining elektron shaklini yaratish uchun ham barcha sharoitlar mavjud. Ayni damda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar o'z samarasini ko'rsatmoqda. Ko'plab izlanuvchan, yangilik yaratish niyatidagi mahoratli pedagoglarimiz hamda ularning qo'l ostida voyaga yetayotgan umidli o'g'il-qizlarimiz turli musobaqa hamda ko'rik-tanlovlarda tuman sharafini munosib tarzda himoya qilmoqdalar. Ular tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlar e'tiborga loyiq. Jumladan o'tgan 2010 yil mobaynida O'zbekiston Aloqa muzeyida "2010 yilning eng namunali maktab sayti" tanlovi g'oliblarini taqdirlash marosimida Sergeli tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 300-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining <http://300school.zn.uz/> sayt-satelliti faxrli 2-o'rinni egallagan bo'lsa, 318-ixtisoslashgan maktab-bog'cha majmuasining <http://318maktab.zn.uz/> sayti faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi va diplom, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.

Joriy o'quv yilida ham qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni davom ettirish maqsadida ko'plab tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tuman xalq ta'limi bo'limi tashabbusi bilan fan o'qituvchilari o'rtasida "Eng yaxshi fan o'qituvchisi sayti" ko'rik-tanlovi e'lon qilindi. Uning yakunlari 1 oktyabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami arafasida e'lon qilinishi rejalashtirilgan. Shundan kelib chiqib, ta'lim muassasalarining axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini yanada kengaytirish orqali ta'lim samaradorligiga erishishni oldimizga muhim vazifa sifatida qo'ymoqdamiz.

Shiddat bilan rivojlanayotgan zamon har birimizning oldimizga muhim vazifalarni qo'ymoqda. Ulardan biri, shubhasiz, zamonaviy kommunikatsiya-aloqa vositalaridan o'rinli va samarali foydalanishdir. Shu maqsadda bugun respublikamizda bo'layotgani singari, Sergeli tuman xalq ta'limi bo'limi va uning tarkibidagi ta'lim muassasalari o'rtasida korporativ tarmoqni muvaffaqiyatli ishga tushirish, elektron hujjat almashinuv

jarayonini yangi bosqichga olib chiqish, ma'lumotlar qidirish, jamlash va tahlil qilish borasida ham bir qator yangiliklar dunyo yuzini ko'rish arafasida. Bunda asosiy e'tibor boshqaruv organlari o'rtasida uzluksiz, sifatli, qulay va tejamkor axborot almashinuvga qaratilib, pirovard natijada ta'lim mazmunini oshirish, farzandlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashga qaratiladi.